<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i> INNOVATION PROCESSES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS	417-423
<i>Burkhiev Olimjon Boboevich</i> SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY	424-429

Received: 05 May 2024
Accepted: 10 May 2024
Published: 25 May 2024

Article / Original Paper

FINANCIAL ASPECTS OF RUSSIA'S EXTERNAL ECONOMIC LINKS (LAST QUARTER OF THE 19th CENTURY - BEGINNING OF THE 20th CENTURY)

Kholliev Azizbek Guzalovich

Acting Professor of the Department of World History, NUUz, Doctor of Sciences in History

E-mail: azizbekholliev@gmail.com

Abstract. The state of Russia's external economic links in the last quarter of the 19th century - the beginning of the 20th century is studied in this article. The main focus is on the detailed consideration of the place and role of financial aspects in the development of the Russian economy. The financial policy implemented by the Russian government during the studied period was analyzed. The impact of this policy on indicators of the development of foreign economic relations is revealed.

Keywords: Russia, external economic links, bonds, market, financial policy, foreign investments, banking, securities, gold reserves.

ROSSIYA TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING MOLIVAVIY JIHLATLARI (XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI - XX ASR BOSHI)

Xolliyev Azizbek Go'zalovich

O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasida professor v.b., tarix fanlari doktori

Annotatsiya. XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarining holati ushbu maqolada tadqiq qilingan. Asosiy e'tibor Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishida moliyaviy jihatlarning tutgan o'rni va roli atroflicha ko'rib chiqishga qaratilgan. O'rganilgan davrda rus hukumati tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy siyosat tahlil qilingan. Ushbu siyosatning tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi ko'rsatkichlariga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya, tashqi iqtisodiy aloqalar, zayomlar, bozor, moliyaviy siyosat, xorijiy sarmoyalar, bank, qimmatli qog'ozlar, oltin zaxira.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N10>

Rossiyaning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi faqat tovar eksport-importi yoki xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati bilan cheklanib qolmadi. Aytish joizki, moliya sektori tadqiq qilinayotgan davrda Rossiya imperiyasi tashqi iqtisodiy aloqalarining umumiy majmuasida muhim rol o'ynadi.

Jahon iqtisodiyoti tizimida Rossiya, birinchi navbatda, sarmoyalarning yirik importchisi sifatida ko'zga tashlandi. Xorijdan mablag'lar doimiy tarzda kiritilmasa, unda jadal sanoat rivojlanishi ro'y bermas edi.

Xorijiy moliya Rossiyaga, asosan, ikki shaklda - iqtisodiyotning muayyan tarmoqlariga sarmoyalar va zayomlar shaklida kirib keldi.

Ta'kidlash joizki, ssuda shaklidagi xorijiy sarmoyalarning oqimi iqtisodiyotga bevosita kiritilgan xorijiy investitsiyalardan sezilarli darajada oshib ketdi.

Jahonda mavjud bo'lgan tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, barcha joyda xorijiy sarmoyaga murojaat qilish chet el moliya institutlarida joylashtirilgan davlat zayomlari ko'inishida boshlangan.

Rossiya ma'murlari muntazam ravishda xorijiy pul bozori xizmatlaridan foydalana boshlagan. Dastlab ular davlat zayomlarini butunlay xorijda yoki mamlakat ichida joylashtirdilar. Rivojlanayotgan temir yo'l qurilishi munosabati bilan Rossiya temir yo'l jamiyatlarining obligatsiyalarini G'arbda sotish keng tarqaldi.

Rossiya imperiyasining Davlat banki kafolati ostidagi "temir yo'l zayomlari" va oltin depozitlari (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gollandiyaga zayomlar kafolati sifatida Rossiyadan yuborilgan oltinni garovga qo'yish) XIX asrning 80-yillari oxirida o'sha davrdagi ulkan miqdorni - 4 mlrd. oltin rublni tashkil etgan [8;2-b.].

Birinchi jahon urushi arafasida ham davlat, ham hukumat kafolati ostidagi barcha temir yo'l zayomlari nominal qiymatining $\frac{3}{4}$ qismi xorijda joylashtirildi. XIX asrning 80-yillari boshida bunday zayomlaridagi xorijiy sarmoyaning ulushi 90%dan oshdi.

XX asr boshiga kelib, mamlakatda "temir yo'l zayomlari" ko'magida 50 ming chaqirim yo'llardan 35 mingtasi yoki umumiy uzunligining 70% qurildi. O'sha paytda Rossiyaga 1,5 mlrd. oltin rubl miqdorida ulkan miqdordagi xorijiy zayomlar taqdim qilindi (1900-yildan keyin ham xuddi shunday miqdorda) [4;11-b.]. London, Amsterdam va ayniqsa Parij bankirlari asosiy zayom beruvchilari edi.

Rossiya iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy sarmoyalar, albatta, xayriya maqsadlarini ko'zlamagan. Xorijiy sarmoyadorlar Rossiyaning qimmatli qog'ozlarini sotib olganida va turli xil tijorat korxonalarini barpo etganida o'z manfaatlariga tayangan: ular o'zlari to'plagan mablag'larni joylashtirish uchun eng yaxshi joyni topgan.

Agar xorijiy sarmoyalarning umumiy tuzilishi nuqtai nazaridan davlatga tegishli va hukumat kafolatiga ega qimmatli qog'ozlarda, shuningdek Rossiyada faoliyat yurituvchi aksiyadorlik korxonalarining aksiyalari va obligatsiyalarida chet el ishtirokining dinamikasini ko'rib chiqsa, unda o'sish tendensiyasining mavjudligini qayd etish mumkin.

1885-1897-yillarda davlat zaxiralarini yaratish uchun xorijdan olingan rasmiy zayomlardan foydalanildi. Davlat xorijdan yiliga qariyb 49 mln. rubldan qarz olardi. Ushbu 49 milliondan 33 millioni oltin va konvertatsiya qilinadigan valyutani sotib olishga, qolgan 16 millioni esa temir yo'l va hukumatning umumiy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirildi. 1885-1897-yillar oralig'ida Rossiya davlat zaxiralari 860 mln. rublga oshdi. Ularning deyarli yarmi (425 mln. rubl) xorijiy davlat zayomlari hisobidan olingan, qolgan qismi esa - ichki oltin qazib olishdan [3;42-b.].

Rossiya oltin zaxirasini yaratish uchun foydalanilgan resurslar oltin standarti qiymatining sezilarli qismini tashkil etdi. 1897-yilda oltin standarti joriy etilgandan so'ng, chet el sarmoyasi manbai sifatida xususiy zayomlarning hajmi davlat zayomlari hajmidan oshib ketdi. Ushbu yilga qadar davlat zayomlari sarmoya kiritishning asosiy manbai bo'lib kelgandi.

Rossiya Davlat bankida oltin zaxirasini to'plash uchta asosiy iqtisodiy maqsadni ko'zlagan. Birinchi vazifa xalqaro to'lovlar uchun jamg'armani yaratishdan iborat bo'ldi. Oltin zaxirasining ikkinchi vazifasi – vaqti-vaqti bilan bir kengayib, bir torayib boruvchi ichki metall

aylanmasi uchun jamg'armani barpo etish edi. Uchinchi vazifa omonatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun zaxira yaratish edi.

1897-yil pul islohoti shunga olib keldiki, ayirboshlashni saqlab turish uchun har yili tobora ko'proq yangi zayomlar tuzilar edi. Mamlakat tashqi qarzdoligining o'sishi xorij oldidagi majburiyatlar bo'yicha yillik to'lovlarning oshib borishiga olib keldi va shu sababdan oltin zaxirasini doimiy tarzda ko'paytirish tendensiyasi paydo bo'ldi.

XIX asr 80-yillari oxirida Davlat banki oltin zaxirasi 381 mln. rublga yetdi. 1897-yilga kelib zayomlarni tuzish orqali Davlat banki ixtiyoriga 1.095 mln. rubl undirishga erishildi. 1902-yilda bank 1.709 mln. rubl miqdorida oltin zaxiraga ega edi. 1908-yildan boshlab bank omborlaridagi oltin zaxira barqaror ravishda o'sib bordi. Davlat bankining bevosita ixtiyoridagi zaxiralar 1909-1914-yillar mobaynida taxminan yarim milliard rubl miqdorida ortdi. Bu davrda Yevropa davlatlarining markaziy emission banklarining hech biri bunchalik katta miqdordagi oltinni jamlamagan edi. Davlat banki omborxonalarida saqlangan oltin zaxiralaridan tashqari, uning xorijdagi korrespondentlari hisoblarida ham katta mablag'lar mavjud bo'lgan. 1908-yil 1-yanvarga qadar Davlat banki xorijda 224,1 mln. rublga teng mablag'ga ega bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1909-yilda - 139,0 mln. rubl, 1910-yilda - 234,5 mln. rubl, 1911-yilda - 217,3 mln. rubl, 1912-yilda - 176,2 mln. rubl, 1913-yilda - 226,2 mln. rublni tashkil etgan. 1913-yil oxiriga kelib Rossiya hukumatining valyuta zaxiralari geografik jihatdan quyidagicha taqsimlangan: Fransiya – 431 mln. rubl, Buyuk Britaniya – 103 mln. rubl, Germaniya – 46 mln. rubl, boshqa mamlakatlar – 14 mln. rubl [2; 367-372-b.].

Shuni ta'kidlash kerakki, 1913-yilda valyuta zaxirasining katta qismi (83 mln. rubl) Germaniyadagi hisob raqamlardan yechib olindi va Fransiya va Buyuk Britaniyaga ko'chirildi. Bu valyuta jamg'armalarini kelgusi jahon urushiga tayyorlash uchun qilindi.

XIX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida davlat zayomlari konversiya qilinganidan, ya'ni shartlari o'zgartirilgandan keyin Rossiya uchun xorijdan qarz olish markazi Fransiyaga ko'chdi.

Biroq, Rossiya juda ko'p miqdorda xorijiy sarmoyaga ehtiyoj sezar edi. Shuning uchun Rossiya hukumati nafaqat fransuzlar, balki butun xalqaro moliya bozoridan foydalanishdan manfaatdor edi.

Moliya vaziri S.Yu.Vitte, sarmoyalarga boy London bozoriga tayanib, 1898-yilda britaniyalik Rotshild orqali Buyuk Britaniyada katta miqdorda rus zayomini joylashtirish imkoniyatini tekshirishni boshladi.

Vitening London banklari bilan aloqa o'rnatishga qaratilgan avvalgi urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchragandi. London fond birjasi 1894-yildan keyin ham Rossiya zayomlarini joylashtirishda ishtirok etmadi.

Ammo bu muvaffaqiyatsizliklar Vitteni dovdiratib qo'ymadi va 1898-yilda u Yevropa bank doiralari bilan yaxshi munosabatlarga ega bo'lgan A.Yu.Rotshteyn (Peterburg xalqaro tijorat va Rus-Xitoy banklari direktori) va Moliya vazirligining Londondagi agenti lavozimiga tayinlangan S.S.Tatishchev orqali ingliz bozorida zayom joylashtirish imkoniyatini yana o'rganishni boshladi. Tatishchev 1898-yil may oyida Londonga yetib keldi va darhol Rossiya elchixonasining rasmiy vakillari tomonidan Londondagi barcha yirik bankirlar xonadonlariga va birinchi navbatda, albatta, Rotshildga tanishtirildi.

1898-yil 7-iyunda Rotshild bilan bo'lib o'tgan samimiy suhbatdan tashqari, Tatishchev Londondagi Gambro, Ryuffer, Bishofsgeym va aka-uka Zeligmanlar va boshqalar kabi taniqli

bankirlar xonadonlari bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazdi. Ammo, bu muzokaralar ijobiy natija bermadi. Ikki davlat o'rtasida siyosiy ziddiyatlarning mavjudligi London moliyachilari va Rossiya o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni kengaytirish yo'lidagi asosiy to'siq edi.

Shunday qilib, Tatishchevning 1898-yilda London bozorida Rossiya hukumati zayomi bo'yicha muzokaralar olib borishga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Rossiya Moliya vazirligi 1894-yildan keyin, ya'ni londonlik Rotshild Rossiya davlat zayomida oxirgi marta ishtirok etgan paytdan so'ng, London bozorida erisha olgani shu bo'ldiki, Rossiyaning 4%li ichki rentasi 1898-yil iyun oyida Londonda kotirovkaga, ya'ni birjada muomalada bo'lishga qabul qilindi [1;32-b.].

1899-yil bahorida davlatlararo siyosiy munosabatlarning biroz yaxshilanishi Britaniya pul bozorining kayfiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

1899-yil iyunida Moliya vazirligi, nihoyat, Londondagi "Genri Shryoder va Ko" bankirlar xonadoni orqali Moskva-Vindavo-Ribinsk temir yo'l jamiyatining 2.975 ming f. st. miqdorida hukumat tomonidan kafolatlangan 4% obligatsiyali zayomni Buyuk Britaniyada joylashtirishga muvaffaq bo'ldi [10;80-81-b.].

Kichik miqdori va nisbatan past narx bilan ham, zayomning katta qismi Gollandiya va Germaniyada sotildi. London bankirlari esa zayomning faqat 25%ga qiziqish bildirdilar.

Vitte 1899-yil sentyabr-oktyabr oylarida Britaniya bozoriga hali ham Amerika bozoriga qaraganda ko'proq umid bog'lagandi. Biroq, bu umidlar ro'yobga chiqmadi.

Keyinchalik, XX asr boshida ham Britaniya pul bozori Rossiyaga davlat zayomlarini joylashtirish uchun to'liq ochildi.

1906-yilda Marokash inqirozi hal qilingandan keyingina Buyuk Britaniya Rossiya davlatining 5%li zayomida ma'lum darajada ishtirok etdi. Jami 2.250 mln. frank miqdoridagi zayomning 1.200 mln. franki Fransiyaga, 330 mln. franki Buyuk Britaniyaga, 165 mln. franki Avstriyaga, 55 mln. franki Gollandiyaga to'g'ri keldi. Qolgan 500 mln. franki Rossiya banklariniki bo'ldi. Shuningdek, Britaniya banklari 1909-yilgi zayomda juda kam darajada qatnashdi. O'sha paytda umumiy miqdori 525 mln. rublga teng zayomda (1.400 mln. fr.) Britaniya banklari guruhining ulushi 150 mln. frankni, Fransiyani esa 1.220 mln. frankni, Gollandiyani 30 mln. frankni tashkil etdi [1;173,247-b.].

Rossiya hukumati o'z zayomlarini nafaqat Yevropada, balki AQSHda ham joylashtirishga harakat qildi.

1898-yil oxirida Yevropa pul bozorida yaqinlashib kelayotgan iqtisodiy inqirozning birinchi belgilari ko'zga tashlanganda, bu paytda pul narxining keng ko'lamliligi ko'tarilishi namoyon bo'lgandi, AQSH fond birjasi esa yuksalishni boshidan kechirayotgan edi, qulay moliyaviy sharoit Rossiya Moliya vazirligini Amerika pul bozoriga kirib borish urinishini amalga oshirishga undadi.

1898-yil oktyabr oyining oxirida Rossiyaning Vashingtondagi bosh konsuli V.A.Teplov ma'lum qildiki, AQSHning bir qator yirik kredit muassasalari, Rossiya hukumati go'yo chiqarmoqchi bo'lgan 100 mln. rubl miqdoridagi yangi tashqi zayom haqida mish-mishlar tarqalganligi sababli, bunday zayomda ishtirok etishga tayyorligini bildirdi.

Teplovdan tashqari, Vittening o'zi ham AQSHning Sankt-Peterburgdagi ishonchli vakili Gerbert Pirs orqali Amerikada Rossiya zayomini joylashtirish taklifini oldi.

Vitte Rossiya uchun AQSH zayomi bo'yicha muzokarlarda birinchi bo'lib tashabbus ko'rsatishni xohlamadi, toki bunday harakat Rossiyaning xorijdagi kreditiga zarar yetkazmasin.

S.Yu.Vitte 1898-yil kuzida moliya vazirligi Maxsus kanselyariyasining kredit bo'limi bo'yicha vitse-direktori A.I.Vishnegradskiyni AQSHga zayom bo'yicha muzokaralar olib borish uchun yuborar ekan, u “don savdosini va elevatorlar o'rganish” uchun jo'nab ketmoqda deb e'lon qildi. Moliya vazirligining Vashingtondagi agenti M.V.Rutkovskiyga ham zayom bo'yicha muzokaralar olib borish topshirildi.

Nyu-Yorkda shunisi ma'lum bo'ldiki, Rossiya vakillari kelishiga qadar zayom chiqarish bo'yicha sindikat tuzilmagan va ular zayom to'g'risida muzokarlarni boshlashga tayyorligini e'lon qilganidan keyingina, bunday sindikat “Bering, Magon va K^o” bankirlar xonadoni tomonidan va Jon Morganning bevosita ishtirokida bunday sindikat tashkil etildi.

Biroq tez orada boshlangan muzokaralar amerikaliklar ilgari surgan moliyaviy shartlar Rossiya uchun to'g'ri kelmasligini ko'rsatdi. AQSH shartlari Yevropa birjasi Rossiyaga taklif qiladigan shartlarga qaraganda yomonroq edi, va Moliya vazirligi amerikalik bankirlar bilan muzokarlarni to'xtatdi [9;236-b.].

Morgan AQSH bozorida 80 mln. dollarlik zayomni sotishga rozi bo'ldi. Biroq, amerikalik bankir faqat 3,5%li zayomni va 96% darajasida ommaviy chiqarish huquqi ila 100% evaziga 92%dan iborat past narxda olishga rozi bo'ldi. Rossiya Moliya vazirligi vakillari 3% ila 100% evaziga 93%dan iborat eng oxirgi shartlarga rozi bo'lishga tayyor edi [1;34-b.].

1899-yil bahorida yo'l qo'yilgan xatolarni hisobga olgan holda muzokaralar qayta boshlandi. Tashabbuschi yana G.D.Pirs bo'ldi.

Pirs vositachiligida 1899-yil may oyining oxirida A.Rotshteyn Bryusselda Morgan bilan uchrashdi, natijada Amerika bozorida ruslarning kredit operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishildi [6;134-b.].

Shu bilan birga ta'kidlash muhimki, Rossiyaga qarz berish istiqboli Amerika banklarini zayomning moliyaviy foydasi nuqtai nazaridan emas, balki savdo aloqalarini va Rossiyada amerikaliklar tadbirkorligini kengaytirish vositasi sifatida qiziqtirgan.

1899-yil bahor va yoz oylarida zayom to'g'risidagi munozaralardan so'ng muzokaralar yangi bosqichga kirdi. 1899-yil oktyabr oyida AQSHning eng yirik sug'urta kompaniyalaridan biri “Nyu-York layf inshurens kompani” (“New-York Life Insurance Co”) 10 mln. dollar miqdorida 4%li rus zayomini sotish to'g'risida sindikat kelishuvini Peterburg xalqaro banki bilan tuzdi. Ushbu zayomdan tushadigan mablag'lar Janubi-Sharqiy va Vladikavkaz temir yo'llarini qurishga sarflanishi kerak edi.

1899-yil oktyabrida Peterburgda imzolangan sindikat shartnomasi shartlariga ko'ra, bu miqdorning 80% Amerika kompaniyasi, 20% esa Peterburg xalqaro tijorat banki o'z zimmasiga oldi.

Vladikavkaz temir yo'llari jamiyati uchun 6,8 mln. doll., yoki 13.212.400 rubl, Janubi-Sharqiy temir yo'l jamiyati uchun 3,2 mln. doll. yoki 6.217.600 rubl miqdorida zayom chiqarildi [5;39-b.].

Moliyaviy nuqtai nazardan, 1899-yilgi temir yo'l zayomini muvaffaqiyat deb hisoblab bo'lmaydi. Zayom hajmi kichik bo'lganligi va bu arzimas miqdorning 1/5 qismini Rossiya banki o'z zimmasiga olganligi bilan bir qatorda, hukumat Amerika sanoatiga zayom hisobidan bir nechta harbiy kemalar qurish uchun buyurtma berishga rozi bo'lishga noiloj ko'ndi.

Shunga qaramay, Rossiya Moliya vazirligi aslo moliyaviy nuqtai nazardan kelib chiqmadi va Amerika bozoridagi ushbu birinchi operatsiyaga katta ahamiyat berdi. 1899-yilgi zayom

faqat birinchi urinish va Rossiya qimmatli qog'ozlarini AQSHda reklama qilish vositasi sifatida ko'rildi.

1900-yil yanvar oyida Peterburg xalqaro banki vakili Korobkov Nyu-Yorkka keldi, unga temir yo'l zayomi obligatsiyalarini yetkazib berish, shuningdek, Nyu-York fond birjasida keyingi operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash topshirildi. Shu munosabat bilan, Korobkov A.Rotshteyndan amerikalik bankirlar bilan qo'shma bank operatsiyalari to'g'risida Rossiya-Amerika kelishuvini tuzish imkoniyatlarini muhokama qilish vakolatiga ega edi. Bu masala birinchi marta paydo bo'lmagandi, balki 1896-yilda muzokaralar mavzusiga ham aylangandi. Biroq bu muzokaralar Rossiya tomonining Amerika manfaatlarini qondirish uchun yetarlicha xohish ko'rsatmaganligi sababli to'xtab qolgandi. Faqat 1900-yil may oyining boshida rus tomoni Rossiya-Amerika banki loyihasining keyingi muhokamasiga "qaytishga" tayyor bo'ldi.

1900-yil iyun oyida A.Yu.Rotshteynning o'zi amerikalik bankirlar bilan muzokaralar olib borish uchun AQSHga yetib keldi. A.Rotshteyn kelgan vaqtga qadar, J.P.Morgan orqali AQSH bank olami taklif qilinayotgan Rossiya-Amerika banki loyihasi bilan batafsil tanishib chiqqan.

U 5 mln. rubl sarmoyasiga ega bankni yaratishi nazarda tutilgan edi. Mablag' Rossiya-Xitoy banki va Nyu-York shahri milliy banki ("National city bank of New-York") o'rtasida teng taqsimlaninishi lozim edi. Loyihalashtirilayotgan bank boshqaruvini Peterburgda tashkil etish rejalashtirilgan. Uning tarkibiga paritet asosida Rossiya-Xitoy banki va Nyu-York shahri milliy banki vakillarini kiritish mo'ljallangan edi [5;56-b.].

Yangi bank Rossiya-Xitoy va Xalqaro banklari bilan kartel munosabatlariga kirishishi kerak edi, uning asosiy vazifasi esa "rus manfaatlariga eng qat'iy tarzda rioya qilish" va Rossiya qimmatli qog'ozlarini Amerikada yoyishdan iborat edi. Boshqa tomondan, ushbu bankning Nyu-York qo'mitasiga Amerikaning Xitoy va Sibir bilan savdosini moliyalashtirish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish topshirilgandi.

"National city bank of New-York" prezidenti Jeyms Stillmen, J.P.Morgan singari, A.Rotshteynning taklifini ma'qulladi va bosh kelishuvni ishlab chiqishda faol ishtirok etdi. A.Rotshteyn Nyu-Yorkda bo'lganidan Rossiyaga zayom taqdim qilish borasida Morgan bilan yashirin muzokaralar olib borish uchun ham foydalandi.

Darhol zayom bitimini tuzish haqida gap bo'lishi mumkin emas edi: birinchidan, yil oxirida kutilayotgan prezidentlik saylovlari tufayli, va eng muhimi, Xitoyda ixetuanlar harakatining avj olishi bilan bog'liq Uzoq Sharqdagi siyosiy mushkulotlar tufayli.

J.P.Morgan taklif qilgan shartlar 1898-yilda u aytgan shartlardan ham yomonroq bo'lib chiqdi. Endi gap 1898-yildagidek 80 mln. dollar emas, balki atigi 50 mln. dollar haqida borardi. J.P.Morgan operatsiyada Yevropa banklarining, xususan inglizlarning, ishtirok etishini talab qildi (keyinchalik bu shart olib tashlangan) va umumiy zayom miqdorini yarmini Peterburg xalqaro tijorat banki o'z zimmasiga olishi sharti bilan operatsiyani amalga oshirishga rozi bo'ldi [7;118-119-b.]. J.P.Morgan tomonidan taklif qilingan shartlar Rossiya Moliya vazirligi uchun nihoyatda befoyda edi.

Biroq, Xitoydagi noqulay tashqi siyosiy vaziyat Vitteni Morgan tomonidan taklif qilingan shartlarga rozi bo'lishga majbur qildi.

Tayyorlangan zayom shartnomasi loyihasi bilan A.Rotshteyn 26 iyun/9 iyul kuni Peterburgga qaytib keldi va shu kuni shartnomani to'liq ma'qullagan Vitte tomonidan qabul

qilindi. A.Rotshteyn S.Yu.Vittening roziligi haqida J.P.Morganni xabardor qilishga shoshildi, lekin uni ranjitadigan noxush javob oldi.

Shu bilan birga, J.P.Morgan zayom bitimini tuzish uchun vaziyatni noqulay deb hisobladi va muzokaralarni choʻzdi. 1900-yil 15 (28)-noyabrda A. Rotshteynga yuborgan telegrammada u Xitoydagi vaziyat tufayli zayom tuzishni hali ham imkonsiz deb hisoblardi. S.Yu.Vitte telegrammani olganida, u allaqachon AQSHda zayom bitimini tuzish gʻoyasidan voz kechgandi. A.Rotshteynga Morgan bilan barcha aloqalarni uzish buyurildi.

Kerakli mablagʻ (159 mln. rubl miqdorida 4%li zayom) keyingi yilda Fransiya bozorida olindi [5;59-b.].

A.Rotshteyn tomonidan Nyu-Yorkda “National city bank of New-York” bilan tuzilgan shartnoma oʻz kuchini saqlab qoldi va keyinchalik amaliy qoʻllanishga ega boʻldi. Biroq, bu kelishuvning haqiqiy ahamiyati AQSH koʻzlagan moʻljaldan ancha kamroq boʻlib chiqdi.

Bir tomondan, AQSHda yirik zayom boʻyicha muzokaralarning muvaffaqiyatsiz yakunlanishi Rossiyaning fransuz birjasiga qaramligini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Ikkinchi tomondan, bu rus hukumatiga boj tariflari masalasida AQSH bilan munosabatlarda qatʼiy pozitsiyani egallash imkonini berdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ананьич Б.В. Россия и международный капитал. 1897-1914: Очерки истории финансовых отношений. - Ленинград : Наука, 1970.
2. Буковецкий А.И. «Свободная наличность» и золотой запас царского правительства в конце XIX-начале XX в. / Монополии и иностранный капитал в России. - Ленинград, 1962.
3. Грегори П. Экономический рост Российской империи (конец XIX - начало XX в.): Новые подсчеты и оценки / Пер. с англ. - Москва: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2003.
4. Донгаров А.Г. Иностранный капитал в России и СССР. -Москва: Международные отношения, 1990.
5. Лебедев В.В. Русско-американские экономические отношения. (1900-1917 гг.). - Москва: Международные отношения, 1964.
6. Попытки С.Ю.Витте открыть американский денежный рынок для русских займов (1898-1902 гг.) // Исторический архив. 1959, № 1.
7. Попытки С.Ю.Витте открыть американский денежный рынок для русских займов (1898-1902 гг.) // Исторический архив. 1959, № 2.
8. Фархутдинов И.З. Иностранные инвестиции в России и международное право. Глава I. Иностранные инвестиции в России 1. История, состояние и перспективы. (http://www.eurasialegal.info/index.php?option=com_content&view=section&layout=blog&id=15&Itemid=37)
9. Фурсенко А.А. Из истории русско-американских отношений на рубеже XIX-XX вв. / Из истории империализма в России: Сборник статей. (Отв. ред. М.П. Вяткин). -Москва, - Ленинград, 1959.
10. RDTA, 583-fond, 4-roʻuxat, 312-ish, 80-81-varaqlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/3(4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).